

ISLOM VA ERKINLIK: FALSAFIY VA AMALIY JIHATLAR

Tursinkulov Nurali Anarbayevich, Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

ISLAM AND FREEDOM: PHILOSOPHICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Tursinkulov Nurali Anarbaevich, senior teacher of Gulistan State Pedagogical Institute

ИСЛАМ И СВОБОДА: ФИЛОСОФСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Турсинкулов Нурали Анарбаевич, старший преподаватель Гулистанского государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0009-5108-7891>

e-mail:

nurturon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom ta'limotidagi erkinlik g'oyasi o'rganiladi. Tadqiqotda erkinlikning shaxsiy, diniy va ijtimoiy jihatlarini yoritilib, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rni aniqlanadi. Islomda erkinlik g'oyasi axloqiy mas'uliyat va dinlararo bag'rikenglik bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Maqola Islomdagi erkinlikni yangi zamon talablari bilan uyg'unlashtirish uchun ilmiy yondashuvni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Islom ta'limoti, erkinlik, diniy erkinlik, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat, Qur'on, Hadis, Islom falsafasi, bag'rikenglik, inson huquqlari, siyosiy erkinlik, ijtimoiy adolat.

Abstract: This article examines the idea of freedom in Islamic teachings. The study highlights the personal, religious, and social aspects of freedom and identifies their role in society and state governance. It shows that the idea of freedom in Islam is closely related to moral responsibility and interfaith tolerance. The article offers a scientific approach to harmonizing freedom in Islam with the requirements of the new era.

Key words: Islamic teachings, freedom, religious freedom, personal freedom, social responsibility, Quran, Hadith, Islamic philosophy, tolerance, human rights, political freedom, social justice.

Аннотация: В данной статье рассматривается идея свободы в исламском учении. В исследовании рассматриваются личные, религиозные и социальные аспекты свободы, а также определяется их роль в обществе и государственном управлении. Показано, что в исламе идея свободы тесно связана с моральной ответственностью и межконфессиональной толерантностью. В статье предлагается научный подход к сочетанию свободы в исламе с требованиями новой эпохи.

Ключевые слова: исламское учение, свобода, религиозная свобода, личная свобода, социальная ответственность, Коран, хадисы, исламская философия, толерантность, права человека, политическая свобода, социальная справедливость.

KIRISH. Erkinlik g'oyasi insoniyat tarixida doimo asosiy qadriyat va bahs-munozaralardan biri bo'lib kelgan. Hozirgi davrda esa bu masala yanada dolzarblashib, shaxsiy huquqlar, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat muvozanatini saqlash ehtiyoji ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Islom ta'limoti erkinlikni qanday falsafiy asosda ko'rib

chiqishi va uning zamonaviy jamiyatga ta'siri katta qiziqish uyg'otadi.

Ushbu maqola Islom ta'limotida erkinlikning falsafiy asoslarini o'rganishni maqsad qilib oladi. Tadqiqot davomida erkinlikning uch jihati – shaxsiy erkinlik, diniy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat – batafsil tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv orqali

erkinlik tushunchasining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, zamonaviy dunyo uchun uning dolzarbligini ko'rsatish rejalashtirilgan.

Islom falsafasida erkinlik mas'uliyat bilan uyg'unlashgani tufayli, bu g'oya hozirgi global inqirozlar, jumladan, ekstremizm va adolatsizlik muammolarini hal qilishda o'ziga xos yondashuvni taklif qilishi mumkin. Shu bois, Islom ta'limotidagi erkinlik tamoyillarini chuqur tahlil qilish, nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Islom ta'limotida erkinlik g'oyasi dinning asosiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Erkinlik tushunchasi Islomda nafaqat shaxsiy huquqlar, balki jamiyatning axloqiy va diniy mas'uliyatlari bilan ham bog'liq. Erkinlikning falsafiy asoslari Qur'on va hadislar, shuningdek, IX-XII asrlarda ijod qilgan islom mutafakkirlari Al-Farobiy, Imom G'azzoliy, Ibn Rushd asarlaridan olib tahlil qilingan.

XXI asrda Islom falsafasida erkinlik g'oyasini tadqiq qilgan zamonaviy olimlar Qur'on, Hadis va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talablarni uyg'unlashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirganlar. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan zamonaviy olimlardan Abdullahi Ahmed an-Na'im, Muhammad Iqbol, Muhammad Abdulloh Draz asarlaridan foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda Qur'on va Hadis tahlil qilinib, erkinlik tushunchasining asoslari Islomning muqaddas manbalaridan izlab topildi. Tarixiy yondashuvda Islom tarixida erkinlikning amaliyotdagi ko'rinishlari, xususan, payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davri va undan keyingi davrlardagi tajribalar o'rganildi. Falsafiy tahlilda zamonaviy musulmon olimlari va g'arb mutafakkirlarining fikrlari solishtirildi. Qiyosiy usulda Islomdagi erkinlik tushunchasi boshqa dinlar va dunyoqarashlar bilan solishtirilib, umumiy va farqli jihatlar aniqlangan. Normativ yondashuvda Islom shariatida erkinlikning huquqiy va axloqiy qoidalari tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Islom ta'limotidagi erkinlik tushunchasi bugungi zamonaviy dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qur'ondagi erkinlik tushunchasi bugungi kunda inson huquqlari, xususan, e'tiqod erkinligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim falsafiy asos

bo'lib xizmat qiladi. Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "Biz odam bolalarini izzatli qildik va ularni quruqlikda ham, dengizda ham (turli ne'matlarimiz bilan) ta'minladik" [1,441] (Qur'on, Isro surasi, 70-oyat). Bu oyat insonning izzat-ikromga loyiq ekanini, uning fundamental huquqlari hurmat qilinishi kerakligini ta'kidlaydi. Qur'on erkinlikni asosiy inson huquqlaridan biri sifatida taqdim etadi. Erkinlikning diniy asoslarini yorituvchi oyatlardan biri Baqara surasining 256-oyati bo'lib, unda diniy e'tiqodda majburlash yo'qligi alohida ta'kidlanadi: "Dinga majbur qilish yo'qdir. Batahqiq, haq botildan ajradi" [1,263]. Islomda erkinlikning asosiy tamoyillari insonning e'tiqod tanlashda erkinligini ta'minlashga qaratilgan.

Erkinlik shunchaki huquq emas, balki axloqiy mas'uliyatdir. Hadislarda ham erkinlik va shaxsiy huquqlar masalasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda: "Har bir musulmon o'zining xohishiga muvofiq faoliyat yuritish erkinligi bor, lekin bu erkinlik boshqalarning huquqlarini buzmasdan amalga oshirilishi kerak"[2, 378]. Ushbu hadis erkinlikni boshqalarga hurmat qilish bilan bog'laydi, bu esa ijtimoiy mas'uliyat bilan uzviy aloqadadir. Hadis orqali erkinlikning maqsadi faqat individual manfaat emas, balki jamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilishidir.

Zamonaviy jamiyatlarda bu prinsiplar erkinlikdan suiiste'mol qilishning oldini olishda asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Zamonaviy huquqshunoslar, masalan, Muhammad Hashim Kamali [3,24] bu tamoyillarni inson huquqlarining Islomdagi asosiy negizi sifatida e'tirof etgan.

Erkinlikning siyosiy nuqtayi nazari, ayniqsa, Farobiy, Ibn Rushd va G'azzoliy kabi islom mutafakkirlarining asarlarida aks etdi. Ular erkinlikni faqat shaxsiy huquq sifatida emas, balki jamiyatdagi barqarorlik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladigan omil sifatida ko'rganlar. Ayniqsa, Ibn Rushd o'z asarlarida erkin fikrlash va ilmiy izlanishlarning ahamiyatini ta'kidladi, bu esa o'z vaqtida o'sha davrning siyosiy erkinlik tushunchasiga ta'sir ko'rsatdi. Ibn Rushd (1126-1198) Islom falsafasida erkinlikka o'zining aqliy va falsafiy yondashuvini taklif qilgan. U erkinlikni insonning ma'naviy va axloqiy erkinligini ta'minlashda asosan aqliy fikr va ilmga asoslangan holda tushuntiradi. Ibn Rushdning "Al-Muqaddima fi al-falsafa" asarida, erkinlik, insonning aqliy

erkinligi va adolat tamoyillari bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. U, ayniqsa, shaxsning erkin fikrlash va o'z ta'limotlarini tanlash huquqini ilgari suradi: "Insonning erkinligi uning aqliy erkinligida ifodalanadi. Har bir shaxs o'z ta'limotiga va e'tiqodiga xohlagan tarzda amal qilish huquqiga ega". [4,24] Ibn Rushd, erkinlikni aqliy taraqqiyot va ilmiy izlanishlar bilan bog'lab, shaxsiy erkinlikni o'zligini anglash va to'g'ri qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish sifatida talqin qiladi. Erkinlik faqat axloqiy yoki diniy erkinlik bilan chegaralanmaydi, balki ilm-fan va izlanish erkinligini ham o'z ichiga oladi.

Imom G'azzoliy (1058-1111) Islomda erkinlik g'oyasini axloqiy va diniy mas'uliyatlar nuqtayi nazaridan tushuntiradi. U erkinlikni nafaqat shaxsiy huquqlar, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat sifatida ham ko'radi. "Ihya Ulum al-Din" asarida G'azzoliy erkinlikning ahamiyatini shunday bayon etadi: "Erkinlik nafaqat insonning xohishiga amal qilishda, balki jamiyatga, axloqiy qadriyatlar va diniy mas'uliyatlarga hurmat ko'rsatishda ifodalanadi" [5,215]. G'azzoliy erkinlikni mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi, bu esa Islomning axloqiy ta'limotlariga mos keladi. U erkinlikni boshqalarni hurmat qilish va jamiyat manfaatlarini ko'zlash bilan izohlaydi.

Farobiy (872-950) ham Islomda erkinlikni ma'naviy va siyosiy aspektlarda ko'rib chiqadi. Uning fikricha, erkinlik insonning intellektual rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq. Farobiy o'z qarashlarida erkinlik jamiyatdagi adolat va barqarorlikka asoslangan holda tushuntirishga harakat qiladi: "Erkinlik – bu insonning o'z taqdirini tanlash, lekin bu tanlov adolat va umumiy manfaatlarga asoslanishi kerak" [6,134]. Farobiy, erkinlikni jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan shaxsiy va jamoat erkinligi sifatida tasavvur qiladi. Uning fikricha, erkinlik faqat ijtimoiy adolatga xizmat qilganda haqiqiy ma'noga ega bo'ladi.

Bu tamoyillar bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan dinlararo muloqot va bag'rikenglikning asosiy falsafiy ildizlari sifatida qayta kashf etilmoqda. YUNESKOning 2015-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, Islom ta'limoti asosida rivojlantirilgan erkinlik va bag'rikenglik tamoyillari xalqaro muloqot va tinchlikni mustahkamlashda qo'llanmoqda [7,112].

Islomdagi erkinlik tamoyillari zamonaviy demokratik tizimlar bilan uyg'unlashadi, chunki ular inson huquqlari, erkinlik va adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Abdullahi Ahmed an-Na'im Islomdagi shaxsiy va diniy erkinlikni dunyoviy davlat modeli orqali qayta talqin qilgan. Muhammad Iqbol o'zining "Islomda diniy tafakkurni qayta tiklash" asarida shunday deydi: "Islomning asosiy tamoyillari zamonaviy demokratik qadriyatlarning falsafiy ildizlarini tashkil qiladi. Erkinlik va adolat ular orasida markaziy o'rinda turadi". Shu bilan birga Muhammad Iqbol erkinlik va qonunning muvozanati haqida fikr yuritib: "Erkinlik shunchaki xohlaganingni qilish emas, balki axloqiy tamoyillarga bo'ysunishdir", [8, 85] deb alohida ta'kidlaydi.

Islom ta'limoti erkinlikni faqat musulmonlar jamiyati uchun emas, balki global miqyosda universal tamoyil sifatida taqdim etadi. Farid Isak "Qur'on, liberalizm va plyuralizm" asarida diniy pluralizm, erkinlik va ijtimoiy tenglik masalalarini Islom nuqtayi nazaridan o'rgangan. Muhammad Abdulloh Draz o'zining "Islom: Axloq va Erkinlik" asarida shunday deydi: "Islomning erkinlikka oid tamoyillari har qanday jamiyatda universal qadriyat sifatida qo'llanishi mumkin"[9,122]. Bu g'oya bugungi globalizatsiya sharoitida din va madaniy farqlarga qaramasdan, insoniyatni birlashtiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Islomda erkinlik faqat shaxsiy masala emas, balki jamiyat va dunyo miqyosidagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim omilidir. Zamonaviy xalqaro huquqshunoslar Qur'onning bag'rikenglik va erkinlik haqidagi oyatlarini tinchlikparvar siyosatning ilhom manbasi sifatida talqin qiladilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Islom ta'limotida erkinlik g'oyasi insonning o'z huquq va majburiyatlari orasida muvozanatni ta'minlashga asoslangan bo'lib, axloqiy tamoyillar, ijtimoiy mas'uliyat va diniy bag'rikenglik kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi: **birinchidan**, axloqiy asos bo'yicha erkinlik nafaqat insonning shaxsiy tanlov huquqi, balki mas'uliyatli harakat qilish axloqiy majburiyati sifatida ham talqin etiladi; **ikkinchidan**, diniy bag'rikenglik bo'yicha Qur'on va hadislar dinlararo tinchlikni saqlash uchun erkinlikning muhimligini ta'kidlaydi, bu esa zamonaviy jamiyatlar uchun ham dolzarb masaladir; **uchinchidan**, jamiyat va davlat boshqaruvi bo'yicha

Islomda erkinlik ijtimoiy adolat, mas'uliyat va boshqaruvdagi shaffoflikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Ushbu mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi zarur deb hisoblaymiz, shuning uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Diniy va dunyoviy ta'lim tizimlarida Islomning erkinlikka oid tamoyillari asosida yosh avlodda bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

- Diniy erkinlik va bag'rikenglik tamoyillarini xalqaro miqyosda ilgari surish orqali tinchlik va hamkorlikni kuchaytirish lozim.

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, Islomning erkinlikka oid ta'limotlari ommalashtirilib, Islomning mazkur masalalardagi haqiqatini global miqyosda yetkazish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1,2,3-juz. HILOL-NASHR, 2008.
2. Imom Buxoriy. Sahih Buxoriy. Nashriyot: Dar al-Fikr, 2007.
3. The Dignity of Man: An Islamic Perspective, Cambridge: Islamic Texts Society, 2002.
4. Ibn Rushd. Al-Muqaddima fi al-falsafa. Dar al-Maarif, 1986.
5. Al-G'azzoliy. Ihya' Ulum al-Din. Dar al-Kutub al-Ilmiyah, 1999.
6. Al-Farobiy. Al-Madina al-Fazila. Dar al-Ma'arif, 2003.
7. Cultural Diversity and Freedom, Parij, 2015.
8. Iqbol, Reconstruction of Religious Thought in Islam, London: Oxford University Press, 1930.
9. Al-Islam: Morality and Freedom, Bayrut: Dar al-Nashr, 1998.

